



# Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:  
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



Journal of Academic Research and  
Trends in Educational Sciences  
(JARTES)

VOL. 2, ISSUE 1

ISSN 2181-2678

[www.ijournal.uz](http://ijournal.uz)

## METHODS OF IMPROVING LITERACY OF STUDENTS IN PRIMARY EDUCATION

Xudoyberdiyeva Iroda Sharof qizi<sup>1</sup>

*Kimyo International University in Tashkent Branch Samarkand*

---

### KEYWORDS

method, methodology,  
comparison, didactic goals,  
qualifications and skills,  
lesson types, new goals,  
didactic materials

---

### ABSTRACT

In this article, methods of teaching primary school students, how to implement them, to provide students with thorough knowledge, to teach ways of forming students' worldview, to teach a person to love work, to learn in the process of teaching. It is thought to show how to educate the virtues such as respect for each other.

2181-2675/© 2023 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.10377151**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

---

<sup>1</sup> Student of primary education, Kimyo International University in Tashkent Branch Samarkand, Uzbekistan

# BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNING SAVODXONLIGINI OSHIRISH USULLARI

**KALIT SO'ZLAR/****КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:**

metod, metodika,  
taqqoslash, didaktik  
maqsadlar, malaka va  
ko'nikmalar, dars turlari,  
yangi maqsadlar, didaktik  
materiallar

## ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitish metodlari, ularni qanday amalga oshirish, o'quvchilarga puxta bilim berishga, o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish yo'llarini o'rgatish, o'qitish jarayonida insonni mehnatni sevishga, o'zining qadr-qimmati bir-biriga hurmati kabi fazilatlarni tarbiyalashni ko'rsatib berish to'g'risida fikr yuritilgan.

Mustaqillik sharofati bilan ta'limgan sohasida misli ko'rilmagan yuksak o'zgarishlar, dunyo ta'limgan standartiga to'la-to'kis o'zini oqlaydigan ta'limgan siyosatining amaliy natijasi kundan kunga o'z isbotini topib bormoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev – Ta'limgan sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'lidir, deb ta'kidlar ekan, Ta'limgan jamiyatga bilim berishga xizmat qilibgina qolmasdan, millatning madaniy merosini jamlaydi, alohida shaxsnинг salohiyatini oshirishga hamda uning kasbiy qiziqishlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Yusuf Xos Hojib bobomiz aytganidek: "Zakovat bor joyda ulug'lik bo'ladi, bilim bor joyda buyuklik bo'ladi". Zeroki, buyuk kelajak egasi bo'lmoqchi bo'lgan har bir yosh, talimga e'tiborni kuchaytirmasa qo'ygan maqsadlariga erisha olmaydi. Ta'limgan olishga bo'lgan ishtiyoq albatta bola davridanoq boshlanadi. Shu boisdan har bir inson uchun boshlang'ich ta'limgan o'rni beqiyosdir. Ta'limgan-tarbiya borasida gapirar ekanmiz, ushbu mavzu yoritilmagan maqol va ibratli so'zlar juda ko'pdir. Yoshlikda olingan ta'limgan, toshga o'yigan naqsh kabidir deb bejizga tilga olinmaydi. Toshga naqshni o'yib chizish juda ham mashaqqatli jarayondir. Ushbu mehnat aslo vaqtlar o'tsa ham o'z ko'rinishini yo'qotmaydi. Darhaqiqat, yoshlikda olingan bilim bir umrga hayot yo'lida yorituvchi chiroq bo'ladi.

Bugungi yoshlarni xalqimizning boy va intellektual merosi va ta'limgan raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari, umumbashariy qadriyatlar hamda zamonaviy fan texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlash har bir millat fidoisining asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu jarayonda boshlang'ich sinflardayoq bola tafakkurini, uning dunyo qarashini, mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga jiddiy e'tibor qaratish zarurligini to'g'ri va asosli anglashimiz imkonini berishini ham unutmaslik lozim.

Boshlang'ich sinflarda savodxonlikni oshirishda so'nggi zamonaviy ta'limga oid pedagogik texnologiyalarni chuqur egallash, ushbu texnologiyalarni o'z milliy qadriyatimiz va mentalitetimizdan kelib chiqqan holda joriy etish juda muhim sanaladi. Albatta, har bitta o'qituvchi bu borada ushbu jarayonni teran anglamog'i zarurdir.

6-10 yoshli bolalarining fikrlash qobiliyatlarini shakllanishida mas'ul davr ekanligini

psixologlar isbot qilishgan. Shu sababli boshlang'ich ta'lism metodikasining vazifalaridan biri o'qitishning yetarlicha yuqori rivojlantiruvchi samaradorligini oshirishni ta'minlashda o'qitishni bolalarning aqliy rivojlanishlariga ta'sirlarini jadallashtirishdan iborat.

Boshlang'ich sinflarda bolalarning aqliy rivojlanishlariga asos solinishi sababli boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun o'quvchilarning aqliy faoliyatlarini darajasini va imkoniyatlarini bilish hamda hisobga olish muhimdir.

Ma'lumki, ta'linda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda ta'lism jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'linda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallahga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zları qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zları keltirib chiqarishga o'rgatadi.

Interfaol metodlar deganda - ta'lism oluvchini faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lism jarayonining markazida ta'lism oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lism beruvchi ta'lism oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. Interfaol metodlar orqali o'quvchilarning tashabbuskorligi hamda jamoaviy izlanuvchanligini oshiriladi. Interfaol metodlardan foydalanib darslar tashkil etilsa, o'quvchining darsga bo'lgan qiziqishi yanada oshadi va ta'lism sifati yaxshilanadi.

O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta'linda «Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Bahsmunozara», «Rolli o'yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishslash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi so'zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda.

Dars mashg'ulotlarida o'yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O'yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining o'yin-topshiriqlarni bajarishga o'rgatilganlik darjasini, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishslash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog'liq bo'lishi kerak.

Ta'linda o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglash va shu fikrni og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o'rgatish masalasiga e'tibor qaratilgan bo'lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o'rinni egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy

merosi asosida o'rganiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, boshlang'ich ta'lism jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda darslarni qiziqarli olib borish natijasida o'quvchilarni darsga jalg etish samarali bo'ladi. Shunday darslarda bolalar diqqati to'liq jalg etiladi, xotirasi yaxshi ishlaydi. Motivlar o'quvchilaring bilimlarini chuqur egallashlariga yordam beradi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'lism jarayonini qiziqarli motivlar asosida tashkil etishga e'tibor qaratishlari zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi". 2022-yil 20-dekabr
2. Mavlanova R, Raxmonqulova N. Boshlang'ich ta'limninig integratsiyalashgan pedagogikasi. T., 2009-y.
3. Jumayev M, Tadjiyeva. Z.Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. T., 2005-y
4. Yo'ldashev J. G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. 2008.
5. Ulug'bekovna, A. N., Moxirovna, N. Boshlang'ich sinflarni o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish. Results of National Scientific Research International Journal, 1(3), 35-42.2022-y